

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

KOMILOVA NODIRA ABDURAHMON QIZI

**ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALAR ASOSIDA TALABALARNING
KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Komilova Nodira Abdurahmon qizi

Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini
takomillashtirish metodikasi.....3

Комилова Нодира Абдурахмон кизи

Методика совершенствования профессиональной подготовки студентов
на основе современных дидактических средств 23

Komilova Nodira Abdurakhmon qizi

Methodology of improving the vocational training of students based on modern
didactic tools45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

KOMILOVA NODIRA ABDURAHMON QIZI

**ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALAR ASOSIDA TALABALARNING
KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.Phd/Ped4255 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Jizzax poletexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ipetvet.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamidov Jalil Abdurasulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Ismoilova Zuxra Karabayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

G'afforov Feruz Hasanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "22" 05 soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel:(+99871) 246-92-17; faks:(+99871) 246-92-17; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (101 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel:(+99871) 246-92-17; faks:(+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "06" 05 kuni tarqatildi.

(2024-yil "06" 05 dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).



R.X.Djurayev
darajalar beruvchi ilmiy
raisi, p.f.d., professor,

S.Yu.Ashurova
darajalar beruvchi ilmiy
kengashi kotibi, p.f.d. (DSc), professor

X.Sh.Kadirov
darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish va didaktik ta'lim resurslarini yaratish hamda zamonaviy didaktik o'quv vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish, zamonaviy didaktik vositalar yaratish, bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak muhandislarning zamonaviy didaktik o'quv vositalaridan foydalanish kompetensiyasi darajalarini aniqlash, o'qitishni tizimlashtirishning nazariy-metodologik, metodik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu borada texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini joriy qilish amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro ta'lim amaliyotida zamonaviy didaktik o'quv vositalarining imkoniyatlaridan foydalanib, texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida kasbiy fanlarning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda multimediali texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga dinamik namoyishli o'quv materiallarini loyihalash, zamonaviy didaktik o'quv vositalari yordamida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha optimal yondashuvlar bilan bog'liq ilmiy ishlanmalar ko'lamini oshirish muhim sanaladi.

Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini axborotlashtirishga, raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish¹ masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliyotida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash talab etiladi. Buning uchun ham o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 30-iyundagi PQ-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. QHMMB: 06/19/5847/3887-son 09.10.2019 y. <https://lex.uz/docs/4545884>

2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kadrlar kasbiy tayyorgarligining turli jihatlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlar va elektron ta’lim resurslari, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda ularni ta’lim jarayoniga qo‘llash masalalari bo‘yicha mamlakatimiz olimlari R.H.Djurayev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, A.R.Xodjaboyev, SH.S.Sharipov, SH.E.Qurbonov, A.Abduqodirov, U.SH. Begimqulov, A.Haitov, F.M.Zakirova, M.Aripov, J.A.Hamidov, O.X.Turakulov, N.I.Taylaqov, D.O.Ximmataliyev, Z.T.Raximov, M.M. Usanov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida ta’limni axborotlashtirish muammolari tadqiqi, ta’lim amaliyotiga, kasbiy faoliyatga ta’lim texnologiyalarni, shu jumladan, masofaviy va elektron ta’lim texnologiyalarini joriy etishning turli jihatlarini A.A.Andreyev, I.G.Zaxarova, YE.S.Polat, I.V.Robert, V.I.Zagvyazinskiy, I.F.Isayev, P.A.Alferov, A.M.Aronov, va boshqalar² va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Oliy ta’lim tizimida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish muammolari xorijiy davlatlar olimlaridan E.Backer, M.Ahmed, M.Camacho, N.Rizk, D.Wallace kabi olimlarning va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda ta’limda elektron vositalardan foydalanish, zamonaviy didaktik o‘quv vositalarini qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bo‘lsada, texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy didaktik o‘quv vositalaridan foydalanish metodikasi yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AIF 1/4 “Kasb-hunarga yo‘naltirilgan markaz va elektronika bo‘yicha qo‘shma o‘quv

² Алферов П.А. Трехуровневая российская инструментальная модель управления проектами (РИМ-III) [Электронный ресурс]. // URL: <https://rim-iii.postach.io/post/opredeleniia-proekta.html>; Аронов А.М., Баранова Е.В. Становление профессиональной аналитической компетентности в высшем педагогическом образовании [Электронный ресурс]. // Научный симпозиум – 2012. – Режим доступа: <https://www.sworld.com.ua/index.php/uk/current-status-and-the-development-of-the-education-c112/11990-c112-115>.

laboratoriya yaratish” (2019-2021 yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy didaktik vositalardan foydalanib talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnika yo‘nalishi oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning divergent, fazoviy va texnik ko‘nikmalarini hamda kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy didaktik vositalar asosida takomillashtirish;

an‘anaviy va zamonaviy didaktik vositalar integratsiyasi asosida texnika yo‘nalishi oliy ta‘lim muassasalarida kasbiy fanlar bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarining tuzilmasini takomillashtirish;

kasbiy fanlardan laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy didaktik o‘quv vositalarining imkoniyatlari asosida takomillashtirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

texnika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida kasbiy fanlardan bo‘lajak muhandislarning mustaqil ta‘limiy faoliyatini zamonaviy didaktik vositalar asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy didaktik vositalardan foydalanib talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini texnika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy didaktik vositalardan foydalanib talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida pedagogik-psixologik ilmiy manbalar, didaktik materiallar, davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlari hamda o‘quv-metodik adabiyotlarni tizimli o‘rganish va tanqidiy tahlil qilish; suhbat, kuzatish, anketa, test, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov; tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika yo‘nalishi oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning divergent, fazoviy va texnik fikrlash kabi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablarga tashxislash va novatorlikka oid kasbga yo‘naltirilgan masalalar va kuzatuvchanlik, texnik tafakkur, texnikani boshqarish bo‘yicha dasturiy vositalarni kiritish orqali o‘qitishning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli komponentlari mazmuniga talabalarning kasbiy faoliyatga oid kompetensiya sifatlarini hamda mutaxassislikka oid kreativligini oshirishga qaratilgan dasturiy ta‘lim vositalarining didaktik, o‘quv metodik, vizuallik, diagnostik, intellektual imkoniyatlari va innovatsion o‘qitish metodlarini modelning raqamli-texnologik-jarayoniy bloki mazmuniga singdirish orqali takomillashtirilgan;

texnika oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi termodinamik hodisa va jarayonlarni fizik eksperimentdan o‘tkazishda imitatsion va sxematik modellashtirishga mo‘ljallangan raqamli va amaliy dasturiy ta‘minotga ustuvorlik berish hamda zamonaviy didaktik vositalardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan dars senariylarini ishlab chiqish asosida

takomillashtirilgan;

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida kasbiy fanlardan talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishga mo'ljallangan dasturiy ta'lim vositalarini laboratoriya mashg'ulotlarida fizik eksperimentlar o'tkazishga doir motivatsion, kamunikativlik, intellektuallik va axborotlilikka asoslangan modelining samaradorligini subyektlararo o'zaro ta'sirning mantiqiy-tartiblashgan tizimida kasbiy kompetentlikni baholashning motivatsion, faoliyatli va kreativ mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida 5320200 - Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishida "Termodinamika va issiqlik texnikasi" kasbiy fani o'quv-metodik ta'minoti, zamonaviy didaktik o'quv vositalaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan elektron qo'llanmalar yaratilgan;

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida 5320200 - Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Termodinamika va issiqlik texnikasi" kasbiy fanlari bo'yicha didaktik ta'lim va o'qitish texnologiyalari asosida takomillashtirilgan dars o'tish metodikasi ishlab chiqilgan;

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida 5320200 - Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan "Termodinamika va issiqlik texnikasi" kasbiy fani bo'yicha didaktik vositalar majmuasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlilida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mashinasozlik mutaxassislari kasbiy kompetentligini o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari orqali takomillashtirish metodikasining ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanganligi, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish darajalari va mezonlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar texnika oliy ta'lim muassasalarining "Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish" ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi mazmuni, o'quv reja va fan dasturlari hamda malaka talablarini takomillashtirishda, elektron darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida didaktik ta'lim vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning divergent, fazoviy va

texnik fikrlash kabi kasbiy kompetensiyalarini rivoglantirishda tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarga tashxislash va novatorlikka oid kasbga yo'naltirilgan masalalar va kuzatuvchanlik, texnik taffakur, texnikani boshqarish bo'yicha dasturiy vositalarni kiritish orqali o'qitishning didaktik imkoniyatlari aniqlashga oid takliflardan Jizzax politexnika instituti ilmiy tadqiqot rejasining OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" (2017-2021 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Jizzax politexnika instituti tomonidan berilgan 2024-yil 23-apreldagi 02-842-833-son ma'lumotnoma). Natijada ushbu taklif texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli komponentlari mazmuniga talabalarning kasbiy faoliyatga oid kompetensiya sifatlarini hamda mutaxassislikka oid kreativligini oshirishga qaratilgan dasturiy ta'lim vositalarining didaktik, o'quv metodik, vizuallik, diagnostik, intellektual imkoniyatlari va innovatsion o'qitish metodlarini modelning raqamli-texnologik-jarayoniy bloki mazmuniga singdirish orqali takomillashtirishga oid tavsiyalar va takliflar esa Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "AIF 1/4 – Kasb-hunarga yo'naltirilgan markaz va elektronika bo'yicha qo'shma o'quv laboratoriya yaratish" (2019-2021 yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan (Jizzax politexnika instituti tomonidan berilgan 2024-yil 23-apreldagi 02-842-834-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu loyiha doirasida ishlab chiqilgan zamonaviy didaktik o'quv vositalari bo'lajak muhandislarda kasbiy kompetensiyalarni rivajlantirishga xizmat qilgan;

texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivajlantirish metodikasini takomillashtirish, kasbiy fanlardan talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishga mo'ljallangan dasturiy ta'lim vositalarini laboratoriya mashg'ulotlarida fizik eksperimentlar o'tkazishga doir motivatsion, kamunikativlik, intellektuallik va axborotlilikka asoslangan modelning samaradorligini subyektlararo o'zaro ta'sirning mantiqiy-tartiblashgan tizimida kasbiy kompetentlikni baholashning motivatsion, faoliyatli va kreativ mezonlari ishlab chiqishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar "Termodinamika va issiqlik texnikasi" fani bo'yicha elektron o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 20-yanvar 89-05-06-son ma'lumotnoma). Mazkur taklif va tavsiyalar talabalarning mustaqil ta'limiy faoliyatining rivajlantirishga, bo'lajak muhandislardan tayanch texnik kompetensiyalarni rivojlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 dan ortiq ilmiy-metodik ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 3 tasi Respublika 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 3 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, 109 sahifa, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida talabalarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalar tahlili va uni takomillashtirishning nazariy asoslari, oliy ta'limda talabalarning kasbiy faoliyatini shakllantirishda zamonaviy didaktik vositalarning o'rni va ahamiyati hamda talabalarni zamonaviy didaktik vositalar asosida kasbiy tayyorlashning pedagogik asoslari haqida fikr yuritilgan.

Globalashuv, xalqaro iqtisodiy integratsiya va ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori darajadagi texnologiyalashuvi mavjud ta'lim xizmatlari bozoriga o'zining mutlaqo yangi va dinamik tarzda o'zgarib borayotgan talablarini qo'yib kelmoqda. Shu bois, ta'lim jarayonini tashkil etish va sifatini ta'minlash tizimining eng muhim elementi xisoblangan oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarining (muhandislarning) kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va joriy etish bugungi kundagi eng muhim masalalardan biridir. Bu esa o'z nabatida, bo'lajak mutaxassisdan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishni, uni doimiy va izchil ravishda rivojlantirib borishni talab etmoqda.

O'tkazilayotgan tadqiqot doirasida, bo'lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarining “5320200 - Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jixozlash va avtomatlashtirish” bakalavr ta'lim yo'nalishi misolida ko'rib chiqdik.

Hozirgi vaqtda “5320200 - Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jixozlash va avtomatlashtirish” ta'lim yo'nalishida bo'lajak muhandislarni tayyorlash DTS va malaka talablariga mos holda kompetensiyaviy yondoshuv asosida amalga oshirilmoqda. Bunda bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim natijalari sifatida rad etilmaydi, biroq shaxsiy sifatlar (maqsadga intilganlik, tashabbuskorlik, javobgarlik va boshqalar) va ijtimoiy adaptatsiya (jamo bilan hamkorlik qilish ko'nikmasi) bilan birga bo'lajak bitiruvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga va uni oldida turgan kasbiy masalalarni tezkor xal qilishga yo'naltirilgan.

Qayd etilgan fikr-mulohazalar oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarning hozirgi va istiqboldagi ustuvor vazifalarini belgilab olishda asosiy mezondir. Chunki, umumkasbiy fanlar o'zining mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra barcha tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tatbiq etishni ko'zda tutadi. Shu nuqtai nazardan, umumkasbiy fanlar nazariya va amaliyotning birligini ta'minlovchi, bo'lajak mutaxassislarning oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishlariga imkon yaratuvchi asosiy omildir. Bunda, bo'lajak muhandisda shakllanadigan va rivojlanadigan kasbiy kompetensiyalar alohida ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida, bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, bu tizimning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratishni, buning uchun esa bo'lajak muhandislarni tayyorlash tizimiga o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini qo'llashni taqozo etadi.

O'tkazilgan nazariy tahlillar va izlanishlar bugunki kunda texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni virtual ta'lim muhiti sharoitida o'qitishni tashkil etish va o'tkazish masalasi to'laqonli ochib berilmaganligini va zamonaviy ta'lim tendensiyalarini o'zida yetarlicha aks ettirmasligini, ya'ni o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

- umumkasbiy fanlarni an'anaviy usulda o'qitish jarayonida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanmaslik;

- ta'lim olishda qaytar aloqaning yo'qligi;

- umumkasbiy fanlardan yetarli darajada virtual ta'lim texnologiyalari bazasi yaratilmaganligi;

- oliy ta'lim muassasalarida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun shart-sharoit yetarli emasligi.

Ana shularni e'tiborga olgan holda biz "Termodinamika va issiqlik texnikasi" umumkasbiy fani bo'yicha tashkil etiladigan laboratoriya mashg'ulotlarda foydalaniladigan o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarining imkoniyatlarini aniqladik (1-rasm).


Tadqiqot ishida o'qitishning zamonaviy vositalari sifatida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanilganligi uchun ularga quyidagicha ishchi ta'riflar qabul qildik.

Virtual laboratoriya - o'rganilayotgan haqiqiy obyektlarda bo'layotgan jarayonlarni kompyuter imitatsiyasi orqali taqdim etish va masofaviy ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quv jarayonining o'qituvchisi va boshqaruvchisining maslaxatchi dasturiy majmuasi.

Virtual auditoriya – ta'lim olish uchun tarmoq texnologiyasi yordamida turli geografik joylarda yashayotgan talabalarni birlashtirish.

Virtual borliq - o'rganishga mo'ljallangan murakkab jarayonlarda kechadigan hodisalarning kompyuter video tizimi orqali ta'lim oluvchi tassavuridagi mavhum ko'rinishi.

O'qitishning virtual muhiti-ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida interfaol aloqani taminlaydigan va doimiy yangilanib turiladigan o'qitish vositalarining majmuasini tashkil etuvchi ochiq tizim.



1-rasm. “Termodinamika va issiqlik texnikasi” umumkasbiy fani bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlarida foydalaniladigan o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarining didaktik imkoniyatlari.


Kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalar dastlab kasbiy fanlarni o‘rganadilar. Quyi kurslarda esa u hali metodik fanlar bilan tanish emas va kasbiy faoliyati haqida ham yuzaki tasavvurga ega bo‘ladi. Yuqori kurslarda talabalar kasbiy faoliyat elementlarini bevosita egallashga o‘qitish nazariyasi va metodikasi mashg‘ulotlarida, kasbiy fanlar va maxsus fanlarni o‘rganishda, pedagogik amaliyotda, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda jalb etiladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash natijasida talaba kasbiy vazifalarni bajarishga tayyor bo‘lishi kerak. Buning uchun talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlarini e‘tiborga olish kerak (2-rasm).

Talabalarni kasbiy tayyorlashning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: motivatsion-maqсадli, mazmuniy-protsessual (jarayonli), resursli komponentlar.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning motivatsion-maqсадli komponenti quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

- a) talabalarning kasbiy faoliyati asosi hisoblangan bilim va motivatsiya darajasini aniqlash;
- b) psixologik tayyorgarligini oshirish;
- v) o'quv kursi mazmuni, tuzilmasi bilan tanishish va o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish.



2-rasm. Kasbiy tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuniy-protsessual komponenti quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

a) talabaning kasbiy faoliyati xususiyatini e'tiborga olib, kurs o'quv materiali mazmunini tanlash;

b) namunaviy masalalarni yechishdan to ijodiy masalalarni yechishgacha bo'lgan davrda faoliyatning turli darajalari ko'zda tutilgan mustaqil ishlarni tashkil etish;

v) o'qitish jarayonining yaxlitligini ta'minlovchi didaktik kuzatuv.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning resursli komponenti quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

a) texnologik, eksperimental, informatsion va loyihaviy faoliyat sohalarida amaliy ko'nikmalar shakllanishini ta'minlovchi moddiy-texnik baza;

b) ijodiy ko'nikma, texnik fikrlash va ishchanlikning rivojlanishiga imkon beruvchi muhim didaktik vositalar.

Talabalarni kasbiy tayyorlashning biz ishlab chiqqan texnologiyasi qat'iy sxema emas, balki u yoki bu qo'shimchalar kiritishni inkor etmaydigan, kasbiy tayyorlashning bir necha variantini taqdim etish imkonini beruvchi dinamik tizimdir.

Bizning fikrimizcha, talabalarni kasbiy tayyorlash nuqtai nazaridan qaraganda, laboratoriya mashg'ulotlarida jamoaviy o'qitish usulini eng samarali deb hisoblash mumkin. Bunda o'qituvchi va talabalar muloqoti dinamik juftlikda yoki almashinuvchi tarkiblar juftligida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida o'qitishni tashkil etishning jamoaviy shakli muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Talabalarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy didaktik vositalar asosida takomillashtirish metodikasi”** deb nomlanib, ushbu bobda virtual laboratoriyalar talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash vositasi sifatida, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanib talabalarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli hamda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi haqida bayon etilgan.

Ilmiy izlanishlar asosida talabalarning muhandis mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda o'zlashtirishi lozim bo'lgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bilim va ko'nikmalar, ularni shakllantirish metodikasi, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy sifatlar va kasbiy bilimdonlik hamda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish asosida umumkasbiy tayyorgarligining, ya'ni yetuk va malakali muhandis kadrlarni tayyorlashning mantiqiy tuzilmasi aniqlandi.

Biz tadqiqot ishi doirasida texnika oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanib bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish modelini takomillashtirdik (3-rasm).


Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish kontekstida tizimli-faoliyatli, muhitli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga asosan ishlab chiqildi.

Modelning asosi sifatida esa shaxsiy-motivatsion, tashkiliy metodik va moddiy-texnik didaktik shartlarni bajarishda amalga oshiriladigan to'liqlilik, tizimlilik, amaliy yo'nalganlik, moslashuvchanlik kabi tamoyillar xizmat qiladi.

Maqsadli blokda ijtimoiy ehtiyoj sifatida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularga qo'yiladigan ilmiy-tadqiqot; hisob-grafik, texnologik-loyihalash, ijodiy-konstruktorlik, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv; foydalanish, xizmat ko'rsatish faoliyat turlari bo'yicha malaka talablarining bajarilishi nazarda tutilgan.

Maqsad texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari yordamida talabalarni umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdan iborat.

Ta'lim va tarbiya jarayonida bo'lajak muhandislarning umumkasbiy, kasbiy fanlar bo'yicha o'quv materialini o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida mustaqil o'rganish malakasini shakllantirish jarayoni o'qituvchi tomonidan maqsadli tashkil etiladi va uning nazorati ostida amalga oshiriladi.



3-rasm. Oʻqitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli.

Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayoni yaqin rivojlanish zonasini tushunishga asoslangan g'oyaga mos holda o'quv topshiriqlarni tanlash asosida tashkil etildi. Birinchi bosqich (variantiv rivojlanish bosqichi) yangi bilimlarni o'zlashtirishga diqqatni jalb etish, motivatsiyani oshirish hisobiga yangi bilimlarni o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichida "Talaba-talaba" o'zaro ta'sirlashuvini ko'zda tutadi.

Ikkinchi bosqich (faol o'qitish bosqichi) da fikrlashning ratsional apparatini qo'llash (o'qituvchi tomonidan "o'qituvchi-talaba" ko'rinishidagi o'zaro ta'sirlashuv shakllanadi.

Uchinchi bosqich (ijodiy mustaqillik bosqichi) o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikma va malakalar asosida bilvosita o'qituvchi rahbarligida yangi obyektlarni yaratish kashf etishni ko'zda tutadi.

Umumkasbiy fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ma'ruza, amaliy, laboratoriya va talabalar mustaqil ishi kabi shakllardan foydalanildi. Ma'ruza qoidaga ko'ra fanning amaliy asosini o'rganishni ko'zda tutadi. Nazariy materiallarni o'rganishga ajratilgan vaqtning yetishmasligi sharoitida yaratilgan elektron o'quv platformasi o'rganilayotgan o'quv kursining barcha nazariy tashkil etuvchilariga kirishni tashkil etishga imkon beradi. Ma'ruza matnlari to'liq saytlarga joylashtirilib qo'yiladi va u o'z navbatida o'quv materiallarini mustaqil o'rganish va qayta ishlashga imkon beradi. Shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda virtual laboratoriyalardan foydalaniladi. Laboratoriya ishlariga metodik ko'rsatmalar elektron platformaga joylashtiriladi. Individual topshiriqlar variantlari ham ishlab chiqilgan va platformaga joylashtiriladi. O'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan maslahatlar quyidagi rejimda amalga oshirilishi mumkin: oliy ta'lim muassasasi auditoriyasidagi maslahat; offline- maslahat; online-maslahatlar zoom platformasi orqali amalga oshiriladi. Natijada nafaqat tashkil etilayotgan o'quv jarayonida "o'qituvchi-talaba" ko'rinishidagi vertikal aloqa, balki "talaba-talaba" ko'rinishidagi gorizontaal aloqa ham ta'minlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning maqsadlari o'qitishning faol va interaktiv metodlariga ko'proq mos keladi. Bu shuni anglatadiki, o'quv jarayonida an'anaviy usullarga o'rin yo'q, ularning roli o'zgarib turadi va ko'pincha ular faol va interaktiv usullar bilan birlashadi. Tadqiqot davomida bo'lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalanildi.

"Loyiha" metodi. Bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish, xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar.

"Hamkorlikda o'qitish" metodi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – biror bir narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qitish va o'rganishdan iborat.

"Tushunchalar taxlili" metodi: ushbu metodni amaliy mashg'ulotlarda qo'llashda guruh talabalarini juftliklarga ajratish talab qilinadi. Har bir juftlikka mavzuga doir asosiy tushunchalar aks etgan jadval ko'rinishidagi tarqatmalar taqdim

etiladi va belgilangan vaqt doirasida tushunchalar mazmun-mohiyati izohlab berishlari so‘raladi

Design Thinking metodi – bu tahliliy yondashuvga emas, balki ijodiy yondashuvga asoslangan muhandislik, biznes va boshqa muommalarni hal qilish metodidir. Dizayn fikrlashning asosiy xususiyati, analitik fikrlashdan farqli o‘laroq, tanqidiy tahlil emas, balki ijodiy jarayon bo‘lib, unda ba’zida eng kutilmagan g‘oyalar muommoning eng yaxshi yechimiga olib keladi.

Metodning ishlash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- Muommoga qanday yondashaman;
- Topilmalarimni qanday ishlataman;
- Biz nimani yaratamiz;
- Men o‘z g‘oyamni qanday yarataman;
- G‘oyamni qanday isbotlayman va takomillashtiraman.

Bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlanganligini baholash quyidagi mezonlar asosida olib borildi: motivatsion, faoliyatli va kreativ.

Tayyorgarlik darajalari:

1. Past daraja, talaba tushunchalar mohiyatini reproduktiv darajada ifodalaydi; ilmiy bilish metodlarini yetarlicha egallamagan, ularni amaliyotda faqat qisman qo‘llay oladi, kasbiy kompetensiyalari yaxshi rivojlanmagan;

2. O‘rta daraja talabada kasbiy kompetentlikning mohiyati haqidagi tasavvurlar mavjudligini nazarda tutadi. Ammo, bu tasavvurlar cheklangan va mustaqil faoliyat olib borish uchun yetarli emas, talaba o‘qituvchi rahbarligida mashg‘ulotni o‘tkazishda keyinchalik qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga motivatsiyalangan;

3. Yuqori daraja talabaning kasbiy faoliyatga barqaror munosabati bilan xarakterlanadi. U yangi g‘oyalarni tekshirish protsedurasini ishlab chiqishga qodir.

Yaratilgan modelning ushbu bloklari kompleks o‘zaro ta’sirlashuvi zamonaviy didaktik vositalar asosida texnika yo‘nalishi oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni ta’minlaydi.


“Termodinamika va issiqlik texnikasi” umumkasbiy fanida laboratoriya ishlanmasining mavjudligi o‘quv materialini yaxshiroq tushunish va o‘zlashtirish uchun zaruriy shart deb hisoblanadi. Fizik eksperiment nazariyani tushunchalarining real obyektlar bilan aloqasini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, u ekvivalent sxemalar yordamida jarayonlar va obyektlarni modellashtirishni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bunday holda eksperimentning metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘yilganligi muhim rol o‘ynaydi, unda muhim xususiyatlar va belgilar ochib berilib, ikkinchi darajali va ahamiyatsiz bo‘lganlari e’tiborga olinmaydi. Laboratoriya tadqiqotlarida fizik eksperiment o‘tkazish bilan birga talabalar MATLAB integrallashgan dasturining SIMYLINK imitatsion modellashtirish paketidan va “MULTISIM 10.0”, “NIMULTISIM 11.0” sxematik modellashtirish tizimidan keng foydalanadilar. Elektron laboratoriyada o‘rganilayotgan jarayonlarni imitatsion modellashtirish amalga oshiriladi. “Virtual laboratoriya” o‘tkazilayotgan eksperimentni chuqur anglash uchun ajoyib laboratoriya trenjyor bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu dasturda talaba laboratoriya va amaliy mashgʻulotlarni bajarishda masalan, ixtiyoriy mantiqiy sxemani yigʻishda turli xil elementlardan foydalana olish imkoniyatiga ega boʻlibgina qolmasdan, balki yasalgan qurilmaning ishlashini kuzatish imkoniga ham ega boʻladi.

Bunday mashgʻulotlar quyidagilarga imkon beradi: talabalarning topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faolliklari va mustaqilliklarini oshiradi; oʻquv materialining multimedia koʻrinishida taqdim etilishi esa uni qabul qilish jarayonini osonlashtiradi; har bir talabaning oʻquv materialni oʻzlashtirishi boʻyicha toʻliq nazorat taʼminlanadi; talabalarda fanga doir oʻrganilayotgan oʻquv materiallar bilan mustaqil ishlashning samarali shakl va metodlaridan ijodiy foydalanish koʻnikmasini shakllanib boradi.

Talaba tajribani multimedia ilovasi asosida kuzatadi, tushunadi, konstruksiyalaydi, soʻngra eksperiment oʻtkazishga yoʻnaltiradi. Bunday ishlanmalarning laboratoriya mashgʻulotlaridagi samaradorligi ancha yuqori boʻlib, ortiqcha vaqt sarfi kamayadi, aniq qiymatlarga erishish unumdorligi oshadi. Quyidagi “Termodinamika va issiqlik texnikasi” umumkasbiy fanida tashkil etiladigan maʼruza va laboratoriya mashgʻulotlarning uzviy bogʻliqligini taʼminlovchi jarayonni amalga oshirish bosqichlari keltirilgan (4- rasm).



4-rasm. “Termodinamika va issiqlik texnikasi” umumkasbiy fanida nazariy va amaliy mashgʻulotlarning uzviy ketma ket bosqichlari.

Boʻlajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida oʻqitishning zamonaviy didaktik vositalari sifatida online dars mashgʻulotlarini tashkil qilish uchun “Termodinamika va issiqlik texnikasi” umumkasbiy fani uchun platforma (<https://nkomilova.netlify.app/>) yaratilgan boʻlib, ushbu platformada boʻlajak

